



ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

3
2023



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

3-son (2023-yil, aprel)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2023

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2023, № 3

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY‘ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)

Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti

Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti

Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jumaev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent.

Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

Научно-теоретический и методический журнал

№ 3, 2023

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «Педагогика» и «Психология».

Журнал основан в 2001 году.

Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

Ответственный редактор: Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук

Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор

Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор

Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор

Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор

Расулов Тулкин Хусенович, доктор физико-математических наук, доцент

Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)

Андрюченко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)

Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)

Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)

Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), доцент

Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор

Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор

Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)

Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор

Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор

Ураева Дармоний Саиджановна, доктор филологических наук, профессор

Дурдиев Дурдимурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор

Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор

Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор

Чариев Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор

Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор

Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор

Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор

Курбонова Гулноз Нематовна, доктор педагогических наук (DSc)

Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук, доцент

Назаров Акмал Мардонович, доктор философии психологических наук (PhD), доцент

Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент

Зарипов Гулмурот Тохирович, кандидат технических наук, доцент

Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD)

PEDAGOGICAL SKILLS

The scientific-theoretical and methodical journal

№ 3, 2023

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «Pedagogy» and «Psychology».

The journal was founded in 2001.

The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

Editor: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Nigora Z. Sayfullaeva

Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov

Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Mels Kh. Mahmudov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov

Doctor of Physical and Mathematical Sciences (DSc), Doc. Tulkin Kh. Rasulov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)

Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Doc. Alijon R. Hamroev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova

Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)

Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev

Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov

Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva

Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev

Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Irgash T. Chariev

Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva

Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova

Doctor of Philology, Doc. Qahramon R.Tuxsanov

Doctor of Psychology, Doc. Akmal M. Nazarov

PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev

Candidate of technical sciences, Doc. Gulmurot T. Zaripov

PhD in Economics Sciences, Layli B. Navruz-zade

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU			
1.	<i>САИПОВА Малоҳат</i>	Меҳнат миграцияси масалаларида хорижий ва маҳаллий олимларнинг изланишлари	7
2.	<i>МАХМУДОВА Диларом Ахмадовна</i>	Психологические особенности внутрисемейных отношений у жертв торговли людьми	11
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
3.	<i>FAYZIEVA Umida Asadovna</i>	O'qituvchining kasbiy pedagogik kompetentligi va uni takomillashtirish yo'llari	16
4.	<i>AMONOV Adkham Kamolovich, ESHIMOV Rahmon Rustamovich</i>	Analysis of computer simulation models in inclusive education on legal approach to learning process	20
5.	<i>JALILOV Hafiz Naimovich</i>	Oliy ta'lim tizimida oila va kasb muvozanatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	24
6.	<i>KARIMOVA Mahbuba Nutfullayevna</i>	Texnologiya darslarida o'quvchilarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirishning zamonaviy usullari	29
7.	<i>MIRZAYEVA Dilfuza Shavkatovna</i>	Bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligida art-pedagogik kuzatib borish konsepsiyasi	34
8.	<i>MUXIDOVA Olima Nurilloevna</i>	Ta'lim tizimida transversal kompetensiyaning ahamiyati	38
9.	<i>NEMATOVA Zebo Tursunboyevna</i>	Autentik materiallar orqali talabalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi	42
10.	<i>QULIYEVA Shahnoza Halimovna</i>	“Texnologik ta'lim” yo'nalishi talabalarida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari	47
11.	<i>QAHHOROV Siddiq Qahhorovich, RUSTAMOV Hakim Sharipovich</i>	Talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda didaktik dasturiy vositalardan foydalanish	52
12.	<i>XUDAYBERGANOV Shuhrat Shavkat o'g'li</i>	Akademik erkinlik va milliy pedagogikaning o'zaro aloqadorligi	59
13.	<i>ЖУМАЕВ Рустам Фаниевич</i>	Интегратив ёндашув асосида талабаларда фуқаролик позицияси ва касбий компетенцияни такомиллаштириш	64
14.	<i>DILOVA Nargiza Gaybullayevna</i>	Shaxslararo munosabat tushunchasi, mazmuni, mohiyati va jamiyat hayotidagi o'rni	71
15.	<i>RAXIMOVA Dilbar Muxiddinovna</i>	Shaxs psixologik yetukligi muammosining uzoq va yaqin xorij olimlari tomonidan o'rganilishi	74
16.	<i>БОЗОРОВ Абдусодиқ Абдурайимович</i>	Профессор-ўқитувчиларнинг касбий камолоти - таълим сифати кафолати	78
17.	<i>САИДОВА Зилола</i>	Ривожланган хориж мамлакатларида олий таълим ва мактаб ўртасидаги интеграция хусусида	83
18.	<i>ELOV Ziyodullo Sattorovich, ISMATOVA Feruza Alisher qizi</i>	Huquq-tartibot organlari psixologining kasbiy kompetensiyasining shaxsiy komponentining tuzilishini o'rganish	89
19.	<i>TILAVOV Muxtor Xasan o'g'li</i>	Boshqaruv faoliyatida qaror qabul qilishning psixologik xususiyatlari	93
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM			
20.	<i>ASATOVA Barfiya Faxridinovna</i>	Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlar mazmunini takomillashtirish metodikasi	97
21.	<i>SAFOYEV Hasan Aminovich</i>	5-6 yoshdagi bolalar uchun o'yin faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari	101

“TEXNOLOGIK TA’LIM” YO’NALISHI TALABALARIDA KREATIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Quliyeva Shahnoza Halimovna,
Buxoro davlat universiteti,
Fizika-matematika fakulteti,
Elektronika va texnologiya kafedrası dotsenti
kuliyeva_shakhnoza@mail.ru

Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida “Texnologik ta’lim” yo’nalishi talabalarida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari masalalari keltirilgan. Bo’lajak texnologiya fani o’qituvchilarini tayyorlashda umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan bilim, ko’nikma va malakalarini egallayotganda kreativ qobiliyatlarni alohida inobatga olish zarur. “Texnologik ta’lim” yo’nalishi talabalarida ayniqsa “Texnologiya ta’limi metodikasi” fani bo’yicha bilimlarni shakllantirishda kasbiy va metodik tayyorgarlik muhim hisoblanadi. Shuning uchun talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish, birinchi navbatda, shaxsga yo’naltirilgan yondashuvni, emotsional-psixik kayfiyatni, faol, ijodiy tasavvurni, o’z-o’zini faollashtirish, mustaqillik, o’z-o’zini nazorat qilish, namoyon qilish, ifodalash, baholash, o’quv jarayonida ta’limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi. Bo’lajak texnologiya fani o’qituvchilarini tayyorlashda har ikkala ya’ni kasbiy va metodik tayyorgarlikda talabalarda kreativ qobiliyat yetarli bo’lsagina yetuk mutaxassis bo’ladi. Maqolada “Texnologik ta’lim” yo’nalishi talabalarida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari haqida batafsil berilgan.

Kalit so’zlar: texnologik ta’lim, qobiliyat, kreativlik, talant, tasavvur, mexanizm, moyillik, potentsial kreativlik, operatsion mexanizm.

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ У СТУДЕНТОВ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ

В данной статье представлены вопросы механизмов развития творческих способностей у студентов направления «Технологическое образование» в высших учебных заведениях. В подготовке будущих учителей технологии необходимо учитывать творческие способности при овладении знаниями, умениями и навыками по общеобразовательным и специальным предметам. Профессионально-методическая подготовка особенно важна для студентов направления «Технологическое образование» в формировании знаний по предмету «Методика технологического образования», поэтому развитие творческих способностей у студентов – это, прежде всего, личностно-ориентированный подход, эмоционально-психический настрой, активное, творческое воображение, самостоятельность, самоконтроль, проявление, выражение, оценка, требует применения инновационных образовательных технологий в учебном процессе. В подготовке будущих учителей технологии студенты станут зрелыми специалистами только при наличии у них достаточных творческих способностей как в профессиональной, так и в методической подготовке. В статье подробно описаны механизмы развития творческих способностей у студентов направления «Технологическое образование».

Ключевые слова: технологическое образование, способность, творчество, талант, воображение, механизм, склонность, творческий потенциал, операционный механизм.

MECHANISMS OF CREATIVE SKILLS DEVELOPMENT IN STUDENTS OF THE TECHNOLOGICAL EDUCATION FIELD

This article presents the issues of mechanisms for the development of creative abilities among students of the direction "Technological education" in higher educational institutions. In the preparation of future technology teachers, it is necessary to take into account creative abilities in mastering knowledge, skills and abilities in general and special subjects. Vocational and methodological training is especially important for students of the direction "Technological education" in the formation of knowledge in the subject "Methods of technological education". Therefore, the development of students' creative abilities is, first of all, a personality-oriented approach, emotional and mental attitude, active, creative imagination, amateur performance, independence, self-control, manifestation, expression, evaluation, requires the use of

innovative educational technologies in the educational process. In the preparation of future technology teachers, students will become mature specialists only if they have sufficient creative abilities in both professional and methodological training. The article describes in detail the mechanisms for the development of creative abilities among students of the direction "Technological education".

Key words: technological education, ability, creativity, talent, imagination, mechanism, inclination, creativity, operational mechanism.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi o'zining rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni keng rivojlantirish va chuqurlashtirish yo'lidan ilgari lab bormoqda. Respublikamiz taraqqiyoti borasida sobit qadam, ustuvor ekanligi, istiqloq yo'lidan og'ishmay borayotganligi mamlakatimizning iqtisodiy siyosatini madaniy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston kelajagi bugungi avlodning har tomonlama kamol topishida, ularning kelgusida davlatni boshqara oladigan, uni har tomonlama rivojlantirishda hissa qo'shadigan, uning kelajagi haqida qayg'urib yashovchi, taraqqiyoti uchun bor bilim, kuch-qudratini sarflovchi inson qilib tarbiyalashga shakllanishiga ko'p jihatdan bog'liq. Bu borada yoshlarni turli kasblarga tayyorlash, ularga maktab dasturidan farqli ularni o'z qiziqishlari, qobiliyatlari, xohish va imkoniyatlariga qarab bilim olishlari va kasb-hunar egallashlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'sib kelayotgan yosh avlod texnik ijodkorlik qobiliyatini, texnika sirlarini anglashi va shu yo'nalishda ta'lim berilsa, respublikamizda erishilgan fan va texnika yutuqlariga tayanib ish ko'rilsa, uning ildizini yanada chuqurroq tushunib kelajakda kuchli texnik mutaxassislar, fan va texnika yutuqlariga o'z hissasini qo'sha oladigan pirovardida esa shu yoshlar chet el mahsulotlari va asbob-uskunalaridan kuchliroq mashinalar yaratish qobiliyatiga ega bo'lgan, shu yo'lda xizmat qila oladigan bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishuvining ta'lim va tarbiya milliy shakllarini yanada rivoj topishida ham katta imkoniyatlar ochib berdi. Yosh avlodni an'analarimiz ruhida tarbiyalab hunar o'rgatilsa, ijodkorlikka yo'naltirilsa, xalqimizning urf-odatlarini, madaniyatimiz va tilimizga munosabatlar ildizi chuqurligi yanada oydinlashadi.

Texnik ijodiyotni rivojlantirishda umuminsoniy qadriyatlar doimo diqqat markazida bo'lish uni amalga oshirish uchun shaxs erkinligi va demokratiyani himoyalash har bir kishining vazifasidir.

Talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish ularning psixologik yoshi bo'yicha tavsifi, jumladan, suhbat, anketa, test, so'rovnoma va boshqa tegishli diagnostik vositalar orqali ta'lim oluvchidagi mavjud kreativ qobiliyatini tegishli tashxislash, unda mavjud bo'lgan va rivojlana boshlagan kreativ qobiliyatni, jumladan, fikrlash va ijod qilish bilan bog'liq tafakkur darajasini aniqlash zarur.

Kreativlik inglizcha "create" so'zidan olingan bo'lib "yaratish" ma'nosini bildiradi. Kreativlik ta'lim oluvchini rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson taffakuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi.

Kreativlik ta'lim oluvchiga ega bo'lgan bilimlarning ko'p qirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, hayotiy muammolar yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi, ya'ni berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun kreativ fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi.

Albert Eynshteyn "Tasavvur-bilimdan muhim" deganida aynan mana shu jihatni nazarda tutgan. Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillikka, odatiylikka barham berilishi lozim. "Kreativlik" so'zi ilk bor 1922-yilda AQSH olimi D.Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama bilan shaxs qolipdagi, stereotip odatiy tafakkurida voz kechish qobiliyatini ta'riflagan.

M.N.Gnatko kreativlikning mexanizmlarini ikkita turga ajratib tahlil qilgan. Bular:

- potensial kreativlik - bu kreativlikning zaruriy sharti bo'lib, qanday sharoit bo'lmasin pedagoglarning kreativlikka tayyor turishi, shuning natijasida o'z g'oyalarini amalga oshirishidir;
- faoliyatdagi kreativlik - bu muayyan bir sohadagi kreativlik hisoblanadi.

Ijodiy qobiliyat yuksak kreativ rivojlanish omili bo'lib, faoliyatning turli jabhalarida, jumladan, nutqiy, yozma-ijodiy va boshqa ko'pgina turlarda ifodalanadi.

"Texnologik ta'lim" yo'nalishi talabalarida "Texnologiya ta'limi metodikasi" fani bo'yicha bilimlarni shakllantirishda kasbiy va metodik tayyorgarlik muhim hisoblanadi. Shuning uchun, talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish, birinchi navbatda, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni, emotsional-psixik kayfiyatni, faol, ijodiy tasavvurni, o'z-o'zini faollashtirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat qilish, namoyon qilish, ifodalash, baholash, o'quv jarayonida ta'limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishni talab etadi.

Qobiliyatlar ruhiy-individual xususiyatlar majmui hisoblanib, mahsuldor faoliyat uchun muhim bilim, ko'nikma va malakalarni egallash imkonini beradi. Qobiliyatlar uchun faoliyat suv va havoday zarur (faoliyat uning shakllanishi va rivojlanishiga shart-sharoit yaratadi). Intellektual qobiliyat tushunchalardan foydalana bilish, mantiqiy umumlashma mulohaza yuritish mahoratini anglatadi. Talabalarning intellektual-ijodiy faoliyatga kreativ yondashuvining negizini ijodiy tasavvur tashkil etadi. Qobiliyatning yetakchi xususiyati ijodiy tasavvur qilishdir. Falsafiy lug'atda tasavvur (xayol) oldingi tajribadan olingan anglash va tasavvur materiallarini qayta ishlash yo'li bilan yangi obrazlarning yaratishga qaratilgan ruhiy jarayonlarni anglatadi. Ijodiy tasavvur – insonning o'z ongida obrazlar, timsollar, g'oya obyektlarini to'satdan gavdalanitira olish yoki ataylab vujudga keltirish layoqati, mahsuldor tafakkur yuritishining uzviy komponentidir.

“Texnologik ta'lim” yo'nalishida talabalar umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini egallashda ijodiy tasavvurga ijodiy faoliyat natijasida obrazning tasavvur bo'yicha yaratilishi sifatida qaraladi (tafakkur, xotira va idrok uyg'unligida). Bu tasavvurning butunlay o'zgartirilishi, mavjud obyekt asosida yangi obrazlar yaratilishi, “haqiqatda mavjud borliqning yangi, o'rganilmagan, tasodifiy uyg'unlikda va aloqada aks ettirish”dir. Obrazning tasavvur bo'yicha yaratilishi turli shakllarda namoyon bo'ladi: birlashtirish, giperbolizatsiya, diqqatni qaysidir jihatga nisbatan kuchaytirish, jadvashtirish, turlarga bo'lish, ahamiyatlisini ajratib ko'rsatish. Tasavvur: sust – noreal; faol – ijodiy yaratuvchi, real-amalga oshiriladigan, orzu va xayol (faoliyat uchun motiv) bo'lishi mumkin.

Bunda, texnologik ta'lim yo'nalishida biror buyumni tayyorlashdan oldin tasavvurga ega bo'lishi, ijodiy tafakkur yuritish qobiliyati, predmet to'g'risidagi ma'lum bilimlarning mavjudligi bilan bog'liq konstruktiv-ijodiy faoliyat muhim sanaladi. Ijodiy hamda qayta tiklanadigan tasavvurni o'zaro farqlash lozim: tiklanadigan tasavvur–bu predmet obrazi (timsoli)ni uning rasmi yoki chizmasi bo'yicha tiklash jarayonidir; ijodiy tasavvur esa yangi obrazlarni mustaqil, hattoki, ma'lum kompozitsiyadagi timsollar tizimi asosida yaratishdan iborat.

Shunga ko'ra, L.S.Vigotskiy tasavvurning tajriba va voqelik bilan bevosita bog'liq bo'lgan quyidagi to'rt shaklini ajratib ko'rsatgan:

1. Ijodiy faoliyat insonning avvalgi tajribasining boyligi va rang-barangligiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Inson tajribasi qancha boy bo'lsa, tasavvur materiali shu qadar ko'p va rang-barang bo'ladi.

2. Tasavvur tajribani kengaytirish vositasi. U o'zgaralar tajribasi yoki ijtimoiy tajriba tufayli vujudga kelib, voqelik bilan aloqaning eng oliy shaklidir.

3. Ikki yoqlama namoyon bo'ladigan emotsional aloqa:

a) tasavvur emotsional omilga – tuyg'ularning ichki mantiqiga tayanadi. Bu tasavvurning subyektiv ichki in'ikosidir;

b) tasavvur tuyg'ularga ta'sir ko'rsatib, bu orqali “tasavvurning emotsional haqqoniyligi qonuni” namoyon bo'ladi.

4. Tasavvur voqelikka ko'chib, boshqa narsalarga ta'sir qila boshlaganida haqiqatga aylanadi.

Shaxsda emotsional sezgirlik, irodaviylik, shoirona romantikaga moyillik, ijodiy tafakkur, idrok qilish faolligi, qadriyatli yo'nalganlik kabi fazilatlarini shakllantiradigan badiiy-ijodiy tasavvur unda kreativlikni rivojlantirishning muhim omili sanaladi. Ijodiy tasavvur timsolli tasavvur, timsolni qaytadan rekonstruksiyalash, tubdan o'zgartirish, to'ldirish, timsolni kombinatsiyalash, yangi vaziyatlarga kiritish, retrospektiv o'ringa qo'yish, umumlashtirilgan holda his etish, qismlarini bir butun holatda narsaga birlashtirish, yangi timsolni yaratish, yangi g'oyani vujudga keltirish, yangi g'oyani amalga oshirish rejasini tuzish vositasida rivojlanadi. Talabalarining kreativ qobiliyatlari, ularning qiziqishi, istagi, ehtiyoji motivatsiyaviy omil sifatida faollashtiriladi. Ushbu jarayon samaradorligiga talaba kreativ qobiliyatini rivojlantirish mexanizmlarini har taraflama takomillashtirish orqali erishiladi. Mexanizm – tabiat qonunlariga ko'ra amal qiladigan hodisa yoki harakatlar tizimi, shuningdek, uning amalga oshishiga ko'maklashuvchi qurilma yoxud asboblardir. Talabalarda kreativlik qobiliyatini rivojlantirish mazkur jarayonni amalga oshirishga qaratilgan psixologik-pedagogik mexanizmlarni faollashtirishni talab etadi. Bunday psixologik-pedagogik mexanizmlar quyidagilardan iborat:

– motivatsion mexanizm–motivsiz, xohish-istaksiz qobiliyatlar yuzaga chiqmaydi;

– operatsion mexanizm–operatsiya (usullar) yordamida qobiliyatlar namoyon bo'ladi;

– funktsional (jarayonli) mexanizm–ruhiy jarayonlar sifati orqali qobiliyatlarining operatsion mexanizmlari amalga oshadi

– ilg'or innovatsion metodlar va vositalar.

Zamonaviy innovatsion metodlar, usul, uslub va vositalar to'g'ridan to'g'ri ta'lim oluvchi shaxsini, undagi kreativlik qobiliyatlarini rag'batlantirish va rivojlantirishga qaratilgan.

E.Torrens kreativlikni yechimlarni topishda bilimlarning yetarli bo'lmashligi muammosi, qiyinchiliklar qarshidagi indentifikatsiya va taxminlarning shakllanishi, yechimlarning topilish jarayoni deb qaraydi.

V. Arteymning izlanishlarida ijodkorlik uning mahsuli bo'lgan obyektga qarab baholanmaydi, deb aniq munosabat belgilanadi. Uning fikricha: «Kreativlik bilim, faoliyat va istakning uyg'unligi». Ko'rinib turganidek, kreativlik masalasi ilm-fanda asosan psixologik tushuncha (kategoriya) sifatida tahlil etilgan hamda uning bevosita inson psixikasi bilan bog'liq ekanligi e'tirof etilgan.

“Texnologik ta'lim” yo'nalishida talabalarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish mexanizmlarni takomillashtirish o'quv jarayonida faoliyat modeli va jadvalidan foydalanishni taqozo etadi. Qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari uning darajalarini ham nazarda tutishni talab etadi. Qobiliyat darajalari ikki xil bo'lib, bular: reproduktiv daraja – bilimlarni o'zlashtirishda yuqori layoqatga ega bo'lish, tegishli ko'nikma va malakalarni egallash; kreativ daraja – bilim, ko'nikma va malakalarning betakror, yangi darajasini ta'minlashdir. Qobiliyatning vujudga kelishini belgilab beruvchi mexanizmlar quyidagi bosqichlarda takomillashib boradi:

1) insonga xos tug'ma layoqat belgilari (alohida tabiiy individual nerv tizimi, miya va analizatorlarning anatomik-fiziologik xususiyatlari) bilan dunyoga keladi, mazkur layoqat belgilari to'g'ridan-to'g'ri qobiliyat sanalmasa-da, ularning qulay shart-sharoitlar orqali tarbiyalab, rivojlantirib borilishi istiqbolda iqtidorli ijodkor shaxsning shakllanishida muhim poydevor vazifasini o'taydi;

2) moyillik – shaxsning muayyan faoliyat turiga intilishi va qiziqishlarida namoyon bo'ladi, ta'lim oluvchilarda o'zlari moyil bo'lgan biror faoliyat turiga nisbatan o'ta kuchli intilish kuzatiladi;

3) qulay ijtimoiy ta'sir. Har bir shaxs rivojlanish jarayonlarida biror ta'sirga kuchli berilish holatini boshdan kechiradi, biror faoliyat turini o'zlashtirishga kuchli moyillikni his qiladi (o'zlashtirish uchun sezitiv (qulay) davrlar uzoq yoki qisqa muddatli bo'lishi mumkin). Ushbu jarayonda faoliyatni o'zlashtirish shart-sharoitlarini ham nazarda tutishga to'g'ri keladi.

4) shaxsiy faollik. Shaxsning hissiy-emotsional holatida–xohish-istaklari, mehnatga moyilligi, yutuqlardan zavqlanishi, irodaviy xususiyatlari va maqsad sari intilishi kabilarda namoyon bo'ladi.

“Texnologik ta'lim” yo'nalishi talabalarining kreativligi, bu uning ma'lum sharoitlarda har xil haqiqiy g'oyalarni izlab topish qobiliyatidir. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kreativ bo'lishi uchun kishi ko'proq kreativ insonlar bilan muloqat qilishi va hamisha izlanishda bo'lishi lozim. Har qanday ko'nikmani shakllantirish mumkin bo'lganday, kreativ fikrlash qobiliyati yoki ko'nikmasini ham rivojlantirish mumkin. Buning uchun “Texnologik ta'lim” yo'nalishi talabalarini doimo o'z ustida tinimsiz ishlar olib borish shu bilan birgalikda kreativ insonlar bilan yaqindan suhbatlar olib borish, kreativlik qobiliyatlarini o'zida shakllantirish kerak. Bu “Texnologik ta'lim” yo'nalishi talabalarini uchun juda muhim bo'lib, kreativlik ustida ishlash ularning noodatiy tarzda fikrlashga yordam beradi. Biroq “Texnologik ta'lim” yo'nalishi talabalarini ruhlantirish va kreativ bo'lishga undash o'qituvchining qay darajada malakali ekanligiga bog'liq. Shuning uchun ham “Texnologik ta'lim” yo'nalishi talabalarini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim masalalardan biri sanaladi. “Texnologik ta'lim” yo'nalishi talabalarida kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda pedagog alohida o'rin tutadi. Bu jarayonda “pedagogning roli auditoriyada kreativlik muhitini yaratishdan iborat. Vaholanki, pedagog guruhda bo'lajak o'qituvchilar o'zini erkin seza oladigan va o'z fikrlari, g'oyalari bilan bo'lisha oladigan muhit yaratishi lozim. Bo'lajak o'qituvchilar inson ongida yuz berayotgan jarayonlarni yanada faollashtirish uchun o'rnatilgan qonun-qoidalar, standartlardan chetga chiqib, turli savollar berishda erkin harakat qilishlari kerak. Pedagog bo'lajak o'qituvchilardagi kreativlikni noodatiy g'oyalarni o'rtaga tashlash va ularni verbal va noverbal tarzda rag'batlantirish orqali qo'llab-quvvatlaydi. Pedagogning bo'lajak o'qituvchilar berayotgan kreativ g'oyalari nisbatan to'g'ri munosabati ularning mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan shartlarni anglashida muhim ahamiyatga ega. Mazkur elementlarning barchasi pedagog-talaba munosabatining muhim qismi bo'lib, bo'lajak o'qituvchilar muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Kreativ muhitda ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilarda asta-sekin kreativ vazifalarni bajarishga nisbatan qiziqish ortadi, shuningdek, kreativ tafakkurga ega pedagogni kuzatish natijasida kreativ fikrlashga moyil bo'ladi. Kreativlik xarakteridagi o'quv bilish muhiti bo'lajak o'qituvchilarda ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega bo'lgan tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasining rivojlanishiga olib keladi. Har bir bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi ijodkor bo'lishi va har bir dars davomida ham ijodkor bo'lishi kerak.

Xulosa. Kreativlik muayyan bosqichlarda tez sur'atlarda rivojlantirilib boriladi. “Texnologik ta'lim” yo'nalishi talabalarida kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur: 1) talabalar tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab-quvvatlash; 2) “Texnologik ta'lim” yo'nalishi talabalarini mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish; 3) “Texnologik ta'lim” yo'nalishi talabalarini tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish; 4) “Texnologik ta'lim” yo'nalishi talabalarining qiziqishlariga e'tibor qaratish. “Texnologik ta'lim” yo'nalishi

talabalari doimo ijodkor bo'lishi kerak shundagini o'z fanining ustasi bo'ladi. Ta'lim jarayonida ham ularni kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishga shart-sharoit yaratib berish kerak.

Motivatsiya, relaksatsiya, talabalarda ijodiy izlanish mavjudligini rag'batlantirish kabi usullarni qo'llab, ularning shaxsiy faolligini oshirishga, badiiy va estetik xususiyatlarini anglashga qaratilgan darsdan tashqari mashg'ulotdagi intellektual-ijodiy faoliyatni jarayon sifatida baholab, talaba shaxsida o'quv va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish hamda uning faol, anglangan-motivatsion, aniq bir maqsadga yo'naltirilgan, ehtiyojlariga asoslangan, metodik, natijali-bashoratlangan, intellektual-ijodiy muloqotlarini ta'limning amaliy va nazariy shakllari, innovatsion metodlarni qo'llab takomillashtirish muhim.

Adabiyotlar:

1. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.
2. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A., Abduraxmonov SH., Abdullayeva Q.M., Gaipova N.S. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t.
3. Kuliyeva Shakhnoza, Karimova Makhbuba Interactive technologies as a means to improve the efficiency and quality of the educational process. International Journal of Human Computing Studies 3 (2), 182-186.
4. Kuliyeva SH Improving Teaching Aids In The Training Of Future Technology Teachers. International Journal of Early Childhood 14 (03), 2022.
5. El papel de las tecnologías pedagógicas modernas en la formación de la competencia comunicativa de los estudiantes. Halimovna K.S, Nurilloevna M.O, Radzhabovna K.D, Shavkatovna R.G Religación. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades 4 (15), 261-266.
6. Кулиева Ш.Х. Аксиологический подход в профессионально-педагогической подготовке будущего учителя Казанский педагогический журнал, 48-52.